



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 3-soni

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025  
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция"  
– "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'y-xatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnalari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanan, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**

O. Choriyev

**Muharrirlar:**

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,  
K. Abdulyaliev, Y. Mahmudov,  
M. Sharifova, Sh. Beknazarov

**Musahih:**

S. Rasulova

**Texnik muharrir:**

U. Sapayev

**Dizayner:**

D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** jurisprudence.tsul.uz  
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387

**Tasdiqnomalar:**

Nº 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 27-iyunda bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog'i: 22,8  
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

**BOSH MUHARRIR**

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

*J. Allayorov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**MAS'UL MUHARRIR**

*N. Ramazonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI**

*J. Blum* – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

*M. Vishovatyi* – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

*A. Hoshimxonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Axmedshayeva* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*X. Xayitov* – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*I. To'raboyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*S. Xolboyev* – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

*N. Raxmonkulova* – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*Z. Esanova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*J. Ne'matov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*M. Kurbanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

*R. Kuchkarov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» - «Yurisprudensiya» - «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**

О. Чориев

**Редакторы:**

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,  
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,  
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

**Корректор:**

С. Расулова

**Технический редактор:**

У. Сапаев

**Дизайнер:**

Д. Ражапов

**Адрес редакции:**

100047. Город Ташкент,  
улица Сайилгох, 35.  
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** jurisprudence.tsul.uz  
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1387

**Свидетельство**

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию  
27.06.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 22,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии  
Ташкентского государственного  
юридического университета.  
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный  
юридический университет

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

Б. Ходжаев - доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

Ж. Аллаёров - доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

Н. Рамазонов - доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**

Дж. Блум - доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый - профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов - доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев - доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев - кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова - доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов - доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров - кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF LAW**

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**

O. Choriev

**Editors:**

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,  
K. Abdullaeva, Y. Makhmudov,  
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

**Proofreader:**

S. Rasulova

**Technical editor:**

U. Sapayev

**Designer:**

D. Rajapov

**Editorial office address::**

100047. Tashkent city,  
Sayilgokh street, 35.  
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** jurisprudence.tsul.uz  
**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1387.

**Certificate**

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 27.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.pf: 22,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of  
Tashkent State University of Law.  
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

**EDITOR-IN-CHIEF**

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

# MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

**11 RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LICH**

Davlat xizmatini tasniflash va ushbu jarayonda davlat fuqarolik xizmatining o'rni

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

**23 RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**

Xususiy huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-metodologik tahlili:  
muammo va yechimlar

**36 G'AYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH**

Tovar omborida omonat saqlash munosabatlarni fuqarolik-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish

**46 QILICOVA MUNIRA AZIMJON QIZI**

Islom moliyasi normalariga muvofiq mudoraba shartnomasida kapital kafolati masalalari

**62 G'AFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH**

Ulushdorlar ulush kiritish asosidagi qurilish shartnomasining zaif tarafi sifatida

**73 SIDIKOV RUSTAM**

Xalqaro huquqda uchuvchisiz uchish apparatlarining huquqiy tabiatи:  
tasniflash yondashuvlari va suverenitet masalalari

**85 SARABEKOV A'ZAMJON ABDUQODIROVICH**

Blokcheyn va smart-kontraktlardan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda foydalanish

**92 ZIYAMOV BOBURXON**

Raqamli diplomatiya va sun'iy intellekt: xalqaro huquqda tartibga solish jihatlari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

**102 XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

Fuqarolik protsessida vakillik instituti: o'ziga xos ahamiyati va xususiyatlari

**111 XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LICH**

Oilaviy nizolarda mediatsiya

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

**125 NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH**

Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir ilg'or tajribalari va ularning ayrimlarini milliy tizimga joriy etish masalalari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**134 XUDAYBERGENOV BAXRAM KUANISHBAEVICH, PARAXATOVA SHAXNOZA YERNAZAROVNA**

Ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish tergov harakati sifatida: nazariy va amaliy masalalar

**146 SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN QIZI**

Apellyatsiya va kassatsiya: ushbu yuqori instansiyalarning sud tizimidagi o'rni

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

**155 XALIQULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda xalqaro shartnomalarning ahamiyati

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

**166 YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**

Bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirishning huquqiy asoslari tahlili

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI  
TA'MINLASH. PROBATSIIYA FAOLIYATI

**175 DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**

Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari:  
Toshkent viloyati va Toshkent shahri misolida

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.  
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

**11 РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ**

Классификация государственной службы и место государственной гражданской службы в этой системе

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.  
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

**23 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ**

Научно-методологический анализ научных исследований в области частного права: проблемы и решения

**36 ГАЙБУЛАЕВ АЛИШЕР ИСМАТОВИЧ**

Дальнейшее гражданско-правовое совершенствование отношений по хранению вещей на товарном складе

**46 КИЛИЧОВА МУНИРА АЗИМЖОН КИЗИ**

Вопросы гарантии капитала в договоре мудараба с точки зрения норм исламского финансирования

**62 ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**

Дольщики как слабая сторона договора долевого строительства

**73 СИДИКОВ РУСТАМ**

Правовая природа беспилотных летательных аппаратов в международном праве: классификационные подходы и вопросы суверенитета

**85 САРАБЕКОВ АЪЗАМЖОН АБДУКОДИРОВИЧ**

Использование блокчейна и смарт-контрактов в гражданско-правовых отношениях

**92 ЗИЯМОВ БОБУРХОН**

Цифровая дипломатия и искусственный интеллект: аспекты регулирования в международном праве

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

**102 ХАБИБУЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**

Институт представительства в гражданском процессе: его значение и особенности

**111 ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ**

Медиация в семейных спорах

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

**125 НИГМАТОВ РУФТУЛЛО ОЛИМДЖОНОВИЧ**

Передовой опыт Великобритании в борьбе с преступностью и вопросы его имплементации в национальную систему

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА,  
ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

**134 ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ КУАНЫШБАЕВИЧ, ПАРАХАТОВА ШАХНОЗА ЕРНАЗАРОВНА**

Получение образцов для экспертного исследования как следственное действие:  
теоретические и практические вопросы

**146 САДРИДДИНОВА ЛАТОФАТ ХУСНИДДИН КИЗИ**

Апелляция и кассация: роль высших инстанций в судебной системе

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

**155 ХАЛИКУЛОВ КОМОЛИДДИН НОСИРОВИЧ**

Значение международных договоров в регулировании межгосударственных отношений  
по признанию и исполнению судебных решений иностранных государств

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

**166 ЮЛДАШЕВ МАКСУД МАМАСОЛИЕВИЧ**

Правовой анализ основ преобразования таможенных органов в сферу, свободную  
от коррупции

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ  
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**175 ДЖУМАНИЯЗОВА ДИЛЬФУЗА КАМАЛОВНА, ШАЯКУБОВ ШОМАНСУР ШАКАБИЛОВИЧ**

Вопросы совершенствования системы работы с молодёжью, относящейся к группе  
социального риска: на примере города Ташкента и Ташкентской области

# CONTENTS

## 12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

### **11 RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**

Classification of civil service and the role of state civil service in this system

## 12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

### **23 RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**

Scientific and methodological analysis of research in the field of private law: problems and solutions

### **36 GAYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH**

Further improvement of civil-legal relations of storage in a warehouse

### **46 KILICOVA MUNIRA AZIMJON KIZI**

Issues of capital guarantee in mudarabah contract from the perspective of Islamic finance norms

### **62 GAFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH**

Shareholders as a weakness of the contract of share construction

### **73 SIDIKOV RUSTAM**

The legal nature of unmanned aerial vehicles in international law: classification approaches and issues of sovereignty

### **85 SARABEKOV AZAMJON ABDUKODIROVICH**

The use of blockchain and smart contracts in civil law relations

### **92 ZIYAMOV BOBURKHON**

Digital diplomacy and artificial intelligence: regulation aspects in international law

## 12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

### **102 KHABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

The institute of representation in civil procedure: its significance and characteristics

### **111 KHUDOYNAZAROV DADAHON AVAZ UGLI**

Mediation in family disputes

## 12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

### **125 NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH**

Advanced experience of Great Britain in combating crime and issues of implementing some of them in the national system

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

**134 KHUDAYBERGENOV BAKHRAM KUANI'SHBAEVICH, PARAKHATOVA SHAKHNOZA YERNAZAROVNA**

Obtaining samples for expert examination as an investigative action: theoretical and practical issues

**146 SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN KIZI**

Appeal and cassation: the role of these higher instances in the judicial system

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

**155 KHALIKULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**

The importance of international treaties in the regulation of interstate relations on the recognition and execution of judicial rulings (decisions) of foreign states

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

**166 YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**

Analysis of the legal basis for transforming customs authorities into a corruption-free sphere

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

**175 DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**

Issues of improving the system of working with youth belonging to socially risk groups: on the example of Tashkent region and the city of Tashkent

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.04.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

**DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./HBAK1422**

**UDC: 339.543:[343.352+328.185](045)(575.1)**

## **BOJXONA ORGANLARINI KORRUPSIYASIZ SOHAGA AYLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI**

**Yuldashev Maqsud Mamasoliyevich,**

Bojxona qo'mitasi Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi xodimi,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-6767-4070

e-mail: Uzsammax@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi, bugungi keng tarqalgan xalqaro tajriba, xususan, G20 mamlakatlari, BMT konvensiyalari va komplayens-nazorat tizimining afzalliklari o'rganilgan. Muallif AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Qozog'iston va Sloveniya kabi davlatlarning bojxona sohasida korrupsiyaga qarshi samarali modullarini tahlil qilgan. Ushbu davlatlarning tanlab olinishida tadqiqotchi tomonidan so'nggi yillarda Bojxona qo'mitasi rahbariyatining tashrif buyurayotgan davlatlar va hamkorlik yo'lga qo'yilgan bojxona ma'muriyatlarining ilg'or natijalariga tayanilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatichilagini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son Farmoni asosida qabul qilingan "Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish" dasturidagi 40 ta chora-tadbir va ularning ijro holati baholangan. Mazkur chora-tadbirlarning baholanishida intervyyu va ekspertlar fikri usullaridan keng foydalanilgan. Amaliyotdagi korrupsiyaviy holatlar misollariga tayangan holda, mavjud tizimning kamchiliklari aniqlangan. Tadqiqot davomida aynan muayyan bir sohani to'liq tavsif etuvchi qonunchilik hujjalarni qabul qilinishida yo'l qo'yilgan e'tiborsizlik natijasida kuch va vositalar sarfida samarasizlik yuzaga kelganligi bo'yicha aniq tahlillar keltirib o'tilgan. Asosiy muammo sifatida tadqiqotchi tomonidan bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirishda boshqa sohalarda bo'lganligi kabi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida kompleks yondashuvning yo'qligi, faqat ichki buyruqlar bilan cheklanib qolinishi va tashqi omillarga e'tibor berilmasligi ko'rsatilgan. Xulosada bojxona sohasini korrupsiyadan holi qilish uchun milliy dastur qabul qilish, aniq mezonlar belgilash va xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona, korrupsiya, komplayens-nazorat, milliy kengash, milliy ma'ruza, qonunchilik tahlili, korrupsiyasiz soha, qarshi kurashish modeli

### **ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОСНОВ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНОВ В СФЕРУ, СВОБОДНУЮ ОТ КОРРУПЦИИ**

**Юлдашев Максуд Мамасолиевич,**

самостоятельный соискатель Правоохранительной

академии Республики Узбекистан

сотрудник Управления внутренней безопасности  
таможенного комитета

**Аннотация.** В статье рассмотрены правовые основы и практическая эффективность проводимых в Республике Узбекистан реформ, направленных на превращение таможенных органов в сферу, свободную от коррупции. Исследуется международный опыт, в частности практика стран G20, положения конвенций ООН и преимущества системы комплаенс-контроля. Автор анализирует успешные антикоррупционные модели в таможенной сфере таких стран, как США, Великобритания, Сингапур, Казахстан и Словения. Выбор указанных государств обоснован тем, что в последние годы руководство Таможенного комитета Узбекистана активно налаживало сотрудничество именно с этими странами. Особое внимание уделено анализу реализации 40 мероприятий, предусмотренных Программой преобразования таможенных органов в систему, свободную от коррупции, утверждённой на основе Указа Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2022 года № УП-122. В процессе оценки использовались методы интервью и экспертного опроса. На основе конкретных примеров из практики выявлены недостатки существующей системы. Отмечается, что из-за отсутствия комплексного подхода на уровне Национального совета по борьбе с коррупцией, как это имеется в других сферах, реализация программ ограничивается внутренними приказами, при этом внешние факторы остаются без должного внимания. В статье также проанализированы случаи неэффективного использования ресурсов, вызванного принятием нормативных актов без всестороннего анализа сектора. В заключение представлены рекомендации по принятию национальной программы по борьбе с коррупцией в таможенной сфере с определением чётких критериев и внедрением международных стандартов.

**Ключевые слова:** таможня, коррупция, комплаенс-контроль, Национальный совет, национальный доклад, правовой анализ, безкоррупционная сфера, модель противодействия коррупции

## ANALYSIS OF THE LEGAL BASIS FOR TRANSFORMING CUSTOMS AUTHORITIES INTO A CORRUPTION-FREE SPHERE

**Yuldashev Maqsud Mamasoliyevich,**  
Officer of the Personal Security Department  
of the Customs Committee,  
Independent researcher at the Law Enforcement Academy  
of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** The article examines the legal basis and practical effectiveness of the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan to transform customs authorities into a corruption-free sphere, current widespread international experience, in particular, the advantages of the G20 countries, UN conventions, and the compliance control system. The author analyzed effective anti-corruption modules in the customs sphere of such countries as the USA, Great Britain, Singapore, Kazakhstan, and Slovenia. In the selection of these countries, the researcher relied on the advanced results of the leadership of the Customs Committee of the visiting countries and the customs administrations with which cooperation has been established in recent years. Also, 40 measures and the state of their implementation in the program "Transformation of Customs Authorities into a Corruption-Free System," adopted on the basis of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-122 dated April 27, 2022 "On Additional Measures for Further Improvement of Customs Administration," were assessed. Interviews and expert opinion methods were widely used in the assessment of these measures. Based on examples of corruption cases in practice, the shortcomings of the existing system were identified. During the study, specific analyses were presented on the inefficiency in the expenditure of forces and resources as a result of negligence in the adoption of legislative acts that fully characterize a particular sphere. As the main problem, the researcher points to the lack of a comprehensive approach at the level of the National Anti-Corruption Council in transforming customs authorities into a corruption-free system, as

*in other areas, limiting it only to internal orders and ignoring external factors. The conclusion provides recommendations for the adoption of a national program to eradicate corruption in the customs sphere, the establishment of specific criteria, and the implementation of international standards.*

**Keywords:** customs, corruption, compliance control, National Council, national report, legal analysis, corruption-free sphere, counteraction model

## Kirish

Har qanday davlatning xavfsizligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lganligi uchun korrupsiya umumbashariy muammolardan biri hisoblanadi. Dunyo davlatlarining barchasida korrupsiyani salbiy ta'sirining oldini olish va uning xavfsizlikka tahdidiga qarshi kurashish bo'yicha strategik rejalar qabul qilingan.

Korrupsiyaning xalqaro hamjamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham doimiy ta'kidlab kelinmoqda. Xususan, Davlat rahbari korruptsianing dunyo miqyosidagi zararini 3 trillion AQSh dollariga yaqin miqdorda ekanligini bildirib, haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilyotgan zararning aniq hajmini to'liq ifoda etib bo'limasligini ma'lum qilgan.

O'zbekiston Respublikasining korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha milliy tajribasida korrupsiya eng ko'p uchraydigan davlat tashkilotlarida "korrupsiyasiz soha"ga aylantirish bo'yicha alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim rol o'ynaydi. Ushbu tajribani O'zbekistonning korrupsiya qarshi kurashish modellaridan biri sifatida baholash mumkin. Xalqaro amaliyotda barcha sohalar uchun bir xilda qarshi kurashish usulalarining qo'llanishi yetarlicha samara bermaxanligi sababli, sohalarni xavf darajalariga bo'lgan holda ularning xususiyatidan kelib chiqib xatti-harakat qilishni risk-tahlil, xavfni boshqarish kabi turli nomlar bilan atash mumkin. Milliy tajribadagi "korrupsiyasiz soha" tushunchasi va mohiyatini ham aynan shunday deb ta'kidlash maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligiga 8 yildan ortiq vaqt o'tdi. Ushbu muddat mobaynida korrupsiya qar-

shi kurashish bo'yicha davlat dasturlari, 15 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Natijada yildan yilga ko'plab sohalarda korrupsiyaviy holatlar aniqlanib, turli jinoiy usul va vositalar bilan talon-toroj qilingan davlat mulki o'z o'rniga qaytarilishiga erishilmoqda. Oliy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida eng ko'p korrupsiyaviy holatlar mavjudligi bayon etilib, dastlab ushbu sohalarni korrupsiyanadan holi qilish bo'yicha tizimli choralar belgilandi. Bugungi kunda korrupsiyanadan holi qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan shunday sohalardan biri bojxona tizimi hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiya qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan amalga oshirilgan tahlillar deyarli barcha sohalarda ushbu illatni butunlay yo'q qilib tashlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasiz bo'lib borayotganligini, tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali qarshi kurashish usul va vositalarini takomillashtirish lozimligini ko'rsatib qo'ydi. Shu sababli, ushbu maqolada bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida qabul qilingan normaviy-huquqiy hujjatlarining huquqiy tahlili va mavjud kamchiliklar keltirib o'tilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini doimiy ravishda ilmiy tadqiqot olib borish uchun dolzarbligini yo'qotmagan. Ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida korrupsiya va uni keltirib chiqaruvchi omillar, qarshi kurashish usul va vositalari bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu tadqiqot ishida aynan 2024-yil va 2025-yilning o'tgan davrida o'tkazilgan milliy va xorijiy tadqiqotlardan foydalilanigan.

Jumladan, Osaka universiteti (Yaponiya) professori Jozef Pozsgay-Alvares va Bolonya

universiteti (Italiya) tadqiqotchisi Oksana Husslar tomonidan “strategik korrupsiya” tushunchasi tadqiq qilinib, korrupsiyaning faqat ichki muammo emas, balki davlatlar tomonidan geosiyosiy maqsadlarga erishish uchun qo'llanadigan vosita sifatida ham faoliyat ko'rsatishi tahlil qilingan [1].

Shuningdek, “Between Immunity and Impunity: External Accountability of Political Elites for Transnational Crime” nomli kitobida Alabama universiteti professori Yuliya Zabelina siyosiy elitalarning xalqaro huquqiy immunitetdan foydalanib, transmilliy jinoyatlardan qanday qutulishlari va bu holatga qarshi qanday choralar ko'rish mumkinligini tahlil qilgan [2].

Makkavilka Tello Bartolome, Kevin Fernandez va boshqalar korrupsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi dinamik bog'liqliknini o'rganib chiqib, korrupsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilishgan va bu sohadagi xalqaro aloqalarni ko'rsatuvchi modelarni ishlab chiqishgan bo'lsa, Nils Kyobis, Kristofer Starke va Iyad Raxvanlar tomonidan sun'iy intellektning korrupsiyaga qarshi kurashdagi imkoniyatlari va xavflari haqida tadqiqot olib borilib, AI texnologiyalarining davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlashdagi rolini tahlil qilishgan.

Lekin “korrupsiyasiz soha” tushunchasi nisbatan yangi atama hisoblanganligi sababli milliy tadqiqotchilar tomonidan bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmagan va uni tashkil etishning huquqiy asoslari tahlil etilmagan.

### **Material va metodlar**

Mazkur tadqiqot ishi bojxona organlarini korrupsiyasiz soha aylantirishning huquqiy asoslарини kompleks tahlil qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot ishi *multidissiplinar yondashuv* asosida amalga oshirilgan bo'lib, unda huquqshunoslik, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va kriminologiya sohalarida nazariy qoidalar uyg'unlashtirilgan. Aso-

siy yondashuv sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil metodi qo'llangan.

*Tadqiqot obyekti:* O'zbekiston Respublikasida bojxona organlarini korrupsiyasiz soha aylantirish jarayoni va uning huquqiy tar dibga solinishi.

*Tadqiqot predmeti:* Bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy bazasi, xalqaro tajriba va amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari.

*Qo'llanilgan tahlil usullari:*

*Kontent-tahlil:* barcha hujjatlardagi kalit atamalar va chora-tadbirlar taqsimlangan.

*Strukturaviy tahlil:* hujjatlar o'rtasidagi bog'liqlik va yo'l berilgan farqlar aniqlangan.

*Funksional tahlil:* har bir hujjatning amaliy ta'siri baholangan.

*Ivent-tahlil metodi:* 2022–2024-yillar davomida bojxona tizimida ro'y bergan korrupsiyaviy holatlar xronologik tartibda tahlil qilangan. Jumladan, Samarqand viloyati bojxona boshqarmasidagi 2024-yil iyun oyidagi hodisa batatsil o'rganilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Tobora transmilliy tus olib borayotgan korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Tadbirkorlik va iqtisodiy integratsiyaning samarali rivojlanishi sharoitiда xalqaro munosabatlar subyektlari tomonidan o'zaro munosabatlarda halollikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha turli darajada huquqiy va amaliy chora-tadbirlarini amalga oshirishmoqda.

Bunda, turli darajada hamkorlikni rivojlantirish masalalarining dolzarbliги ortib bormoqda.

Xususan, rivojlangan davlatlardan iborat G20 tashkiloti tomonidan 2024-yil noyabr oyida o'tkazilgan davlat rahbarlarining navbatdagi sammitida 2025–2027-yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar rejasি tasdiqlangan. Shuningdek, xususiy sektor vakillarini korrupsiyaga qarshi kurashishda halollikni

ta'minlash bo'yicha qo'shgan hissasi uchun rag'batlantirish tamoyillari qabul qilingan.

G20 davlatlarining keyingi 3 yillikda korrupsiyaga qarshi kurashishda o'z oldiga qo'ygan rejalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Korrupsiya bilan bog'liq ishlarda aktivlarni qaytarish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2. Benefitsiar egaligi shaffofligini ta'minlash va noqonuniy pul yuvishga qarshi kurashishni takomillashtirish.

3. Xorijdagi poraxo'rlikka qarshi kurashish.

4. Raqamlashtirish orqali davlat idoralari faoliyatining shaffofligini ta'minlash.

5. Xususiy sektor faoliyatining shaffofligini ta'minlash.

BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 46-moddasida a'zo davlatlarning mas'ul tuzilmalari o'rtasida bevosita hamkorlik qilinishi belgilangan. Shuningdek, 54-moddada konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilishda keng ko'lamli hamkorlik nazarda tutilgan.

Shunga ko'ra, a'zo davlatlar uchun 2021-yilda Xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha operativ tarmog'i (Global Operational Network of Anti-Corruption Law Enforcement Authorities – GlobE Network) tashkil etilgan. Ushbu tarmoq sekretariati vazifasini BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi bajaradi.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida dunyo davlatlarining hamkorligini ta'minlash va birgalikdagi qarshi kurashish tizimini yaratish maqsadida xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiyaviy va majburiy tusdagi konvensiya, kelishuv, memorandum kabi huquqiy asoslar yaratib kelinmoqda. Shulardan biri Aktivlar haqidagi deklaratsiyalarni tekshirish uchun ma'lumot almashtish to'g'risidagi xalqaro kelishuv bo'lib, u 2021-yil mart oyida Mintaqaviy korrupsiyaga qarshi tashabbus tashkiloti ((Regional Anti-

Corruption Initiative – RAI) tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu kelishuv qabul qilinganidan beri ilk bor 2024-yilga kelib Makedoniya tomonidan ratifikatsiya qilindi.

Shuningdek, bir qator rivojlangan davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi tajriba usullarining nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2012-yilda hukumat rahbari Si Szinpin tomonidan belgilangan islohotlar bo'yicha turli yo'nalishda tadqiqotlar o'tkazib kelishmoqda. Shunday tadqiqotlardan biri 2024-yil yakunida tadqiqotchilar Syun Li (Xun Li), Vensi Pan (Wensi Pan) va Gan Syuy (Gang Xu) tomonidan tayyorlangan "Yanada "kelishgan hukumat" Xitoyda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tadbirlarning xodimlar tana ko'rinishiga ta'siri" nomli maqola hisoblanadi. Maqolada 2009-yilda Xitoy davlat xizmatchilarining 40 foizdan ortig'i doimiy og'ir vazndan aziyat chekkanligi, hozirgi kunda bu kabi holatlar kuzatilmayotganligi ma'lum qilingan.

Xalqaro tajribada keng qo'llanadigan korrupsiyaga qarshi kurashish modellaridan biri "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish hisoblanadi.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi turli shakldagi korxona va kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimi joriy etilgan. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Malayziya, Sloveniya, Qozog'iston "komplayens-nazorat" tizimi o'zida joriy etish bo'yicha samarali tajribaga ega bo'lgan davlatlardir.

Fransiyada 800 000 yevrodan oshiq kapitalga ega bo'lgan davlat korxonalarida "komplayens-nazorat" tizimlarini joriy etgan bo'lishlari shart.

Buyuk Britaniyaning 1 mlrd funt sterling kapitalga ega bo'lgan 700 dan ortiq davlat ulushiga korxonalar tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan hi-

moya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo'llanmoqda.

Masalan, Qozog'istonda qator sohalar, xususan, bank tizimida va barcha davlat ulushi bo'lgan korxonalarda 2017-yildan boshlab, komplayens xizmatining joriy etilishi majburiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda komplayens xizmatini tartibga solish mexanizmlari kiritilgan;
- komplayens xizmatining joriy etishishi natijasida mamlakatning investitsion jozibadorligi oshishiga va xalqaro reytinglarda yuqorilashiga sabab bo'ldi;
- tizimning samarali joriy etilishi "idoraviy halollik" shaklida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Sloveniyaning amaliyotida bank sektorida komplayens xizmatining joriy etilishi natijasida davlat sektoriga kadrlarni tanlashda maksimal shaffof mexanizmlar o'tishga imkon berdi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishning mukammal tizimi yaratilgan. Mazkur xizmat faoliyati alohida qonun ("Cloveniya davlat xoldingi akti to'g'risida"gi) bilan tartibga solinadi.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Tadqiqotning kirish qismida ta'kidlanganidek, "korrupsiyasiz soha" atamasi korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan davlat tashkiloti va idoralarida qarshi kurashishning alohida usullarini joriy etish maqsadida amalga oshiriladigan kompleks choralarining umumiy nomlanishi hisoblanadi.

Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish g'oyasi shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbus bo'lib, 2022-yil 17-fevral kuni bojxona organlari bilan videoselektr shaklida o'tkazilgan uchrashuv asos bo'lgan. Mazkur tashabbus asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-aprelda "Bojxona ma'muriyatichilagini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son Farmoni qabul qilin-gan.

Farmondan ko'zlangan asosiy maqsad bojxona ma'muriyatichilagini yangi bosqichga olib chiqish, bojxona va yuk operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish orqali inson omilini keskin qisqartirish, bojxona sohasini ochiqlik, shaffoflik hamda ishonchlilik tamoyillari asosida korrupsiyadan holi tizimga aylantirish hisoblanadi. Shu sababli farmonning 4-ilovasi bilan "Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish" Dasturi va 5-ilova bilan "Bojxona organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, odob-axloq qoidalari va IT-teknologiyalar, telekommunikatsiyalar bo'yicha o'quv kurslarda o'qitish" reja-jadvali tasdiqlangan. Dasturda:

- bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish;
- kadrlar bilan ishslash va ularni ijtimoiy himoya qilish kabi ikki asosiy yo'nalishda jami 40 ta chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur chora-tadbirlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishda xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va qarshi kurashish tuzilmalar faoliyatini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rshimiz mumkin.

Amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan tizimda korrupsiyaviy holatlarning mavjudligi qarshi kurashish usullarini yetarlicha samarador emasligini ko'rsatadi. Jumladan, o'tkazilgan tezkor tadbirlar davomida avtotransport vositalari ehtiyyot qismlari savdosi bilan shug'ullanuvchi MCHJning bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis mahalliy tadbirkor tomonidan 2024-yilning iyun oyida Turkiyadan olib kelingan, qiymati 850 mln so'mlik tovar moddiy boyliklar uchun to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojlarini bojxona idoralaridagi tanishlari orqali tez va arzon narxlarda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirib berganligi evaziga 1300 AQSh dollari talab qilib, shundan 1100 AQSh dollarini olgan vaqtida, mazkur ishga aloqador bo'lgan, Samarqand viloyati bojxona boshqar-

masiga qarashli bojxona postlaridan birining boshlig'i ham 200 AQSh dollari olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlanganligi korrupsiyaga qarshi kurashish bevosita vazifasi hisoblangan rahbar kadrlarning haligacha ushbu il-latdan qutulolmayotganligini bildiradi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi, bojxona organlarini "korrupsiyasiz soha"ga aylantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar nima uchun samara bermay qolmoqda?

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoniga asosan, 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korruptsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish ishlari boshlangan. Shuningdek, 2021-yildan "Korruptsiyasiz soha" loyihasi sog'liqni saqlash, davlat xaridlari va bank tizimida ham amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilanib, Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan har bir soha bo'yicha alohida "Yo'l xarita"lari tasdiqlangan.

Ta'kidlash joizki, "Korruptsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish uchun mazkur sohalarning tanlab olinishiga asosiy sabab sifatida ularda korruptsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori ekanligi, korruptsiyaga oid jinoyatlar soni yildan yilga oshib borayotganligi hamda ijtimoiy so'rovnama natijalariga ko'ra aynan mazkur sohalarda eng ko'p korruptsiya tarqalganligi inobatga olingan.

Ushbu sohalarda o'tgan davr mobaynida yo'l xaritalari va qonunchilik normalari asosida tizimli ishlar amalga oshirilib, raqamlashtirilganligi natijasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, 2023-yilda sog'liqni saqlash tizimida aniqlangan korruptsiyaviy holatlar soni 299 tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 85 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich banklarda mos ravishda 323 (381), oliy ta'limda 112 (187) tani tashkil etган [3].

Bojxona organlarida ham amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zlangan natijani berishini ta'minlashning dastlabki zaruriy sharti huquqiy asoslarni yaratish hisoblanishi tabiiy. Lekin Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida bojxona organlarini korruptsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida chora-tadbirlarni belgilanmaganligi va kompleks yondashuvni amalga oshirilmaganligi, soha bo'yicha faqatgina bojxona organlarning hamkor tuzilmalari bilan qarshi kurashilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2024-yil yakunlari bo'yicha korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy ma'ruzadan ham bojxona organlarini "korruptsiyasiz soha"ga aylantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar va ularning tahlili o'rin olmaganligini ko'rish mumkin.

2022-2025-yillar davomida bojxona organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish qabul qilingan ichki buyruqlarning soni va qamrovi qanchalik keng bo'lmasin, ular sohani tartibga solish uchungina xizmat qiladi. Sohada korruptsiyani keltirib chiqaruvchi tashqi omillar ham mavjudligi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida normativ hujjatlarni qabul qilishni va ijrosini ta'minlash orqali uchinchi tomon mas'uliyatini oshirishni taqozo etadi.

### Xulosalar

O'tkazilgan tadqiqot natijasida bojxona organlarini korruptsiyasiz sohaga aylantirish masalasining O'zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xalqaro tajribani o'rganish natijasida korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali modellari aniqlandi. G20 davlatlarining 2025-2027-yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasи, BMTning GlobE Network tarmog'i va "komplayens-nazorat" tizimining afzallikkleri tahlil qilindi. AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Qozog'iston va Sloveniya kabi mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, endilikda tizimli yondashuv va raqamlashtirish orqali korruptsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili qarama-qarshi natijalarini ko'rsatdi. Bir tomondan, Prezidentning 2022-yilgi PF-122-sون Farmoni asosida 40 ta chora-tadbir belgilanib, bojxona ma'muriyat-chiligini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Inson omilini keskin qisqartirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish bo'yicha ishlar olib borildi. Boshqa tomondan, amaliyotda sodir bo'layotgan korrupsiyaviy holatlar (masalan, Samarqand viloyati bojxona boshqarmasidagi hodisa) mavjud tizimning kamchiliklarini yaqqol ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida qator tizimli muammolar aniqlandi. Eng muhimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida bojxona organlari uchun kompleks dastur mavjud emasligi hisoblanadi. Sog'liqni saqlash (299 holat, 85 taga kamayish), bank tizimi (323 holat) va oliv ta'lim (112 holat) kabi sohalarda erishilgan ijobjiy natijalar bojxona tizimida kuzatilmagan. Buning asosiy sabablari faqat ichki buyruqlar bilan cheklanib qolinishi, tashqi omillarga yetarlicha e'tibor beril-

masligi va aniq baholash mezonlarining yo'qligidir.

Muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

*birinchidan*, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan bojxona organlari uchun alohida dastur ishlab chiqish va tasdiqlash zarur;

*ikkinchidan*, xalqaro standartlar asosida "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish, korrupsiya xavfi yuqori lavozimlarda maxsus profilaktika mexanizmlarini yaratish lozim;

*uchinchidan*, natjalarni obyektiv baholash uchun aniq mezonlar va ko'rsatkichlarni belgilash, tizimli monitoring va tashqi nazorat mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

Xulosa o'laroq, bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish faqat ichki choralar bilan emas, balki xalqaro tajriba, ilmiy yondashuv va davlat dasturi asosida kompleks tizim sifatida amalga oshirilganda samarali natjalarga erishish mumkin. Bu jayron O'zbekistonning xalqaro reytinglarda o'rnini mustahkamlash va investitsion jozibadorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Pozsgai-Alvarez J., Huss O. The meeting of two worlds: strategic corruption as an emerging concept in (anti-) corruption studies and international relations. *Contemporary Politics*, 2025, vol. 31, iss. 2, pp. 306–327. DOI: 10.1080/13569775.2024.2370695/.
2. Zabyelina Y. Between Immunity and Impunity: External Accountability of Political Elites for Transnational Crime. Cambridge University Publ., 2023, p. 266. DOI: 10.1017/9781009086301
3. National report on combating corruption. Information and analytical information. Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan, 2024, p. 70.
4. Ismailov B.I. Xorijiy davlatlarda mansabdar shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish [Declaration of assets of officials in foreign countries]. B.I. Ismoilov (Ed.) Tashkent, Anti-Corruption Research and Training Center of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 6.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari [Uzbekistan on the threshold of the 21st century: threats to security, conditions for stability and guarantees of development]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1997, p. 86.
6. Tairova N.M. Korruptsiya kak sotsial'noye yavleniye: istoriko-filosofskiye i politologicheskiye aspekty mirovoy mysli i praktiki [Corruption as a social phenomenon: historical, philosophical and political aspects of world thought and practice]. *Management Consulting*, 2014, vol. 2, pp. 159–169.

7. Kuznetsova N.F., Min'kovskiy G.M. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, MSU Publ., 1994, p. 58.
8. Kairzhanov Ye.I. Prestupnost' – yavleniye sotsial'noye [Crime is a social phenomenon]. *Crime prevention*, 2003, vol. 1, p. 8.
9. Satarov G.A. Rossiya i korruptsiya: kto kogo? [Russia and corruption: who will win?]. *Russian Newspaper*, 1998, p. 2.
10. Tojiboyev K. Mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik [Liability for plundering other people's property through abuse of official position]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 13.
11. Klitgaard R. Addressing corruption together. Paris: OECD Development Centre, 2015.
12. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. The economic consequences of legal origins. *Journal of Economic Literature*, 2017, vol. 46(2), pp. 285–332.
13. Karimov A.N. O'zbekiston bojxona tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy masalalari [Legal issues of combating corruption in the customs system of Uzbekistan]. *Jurisprudence*, 2021, vol. 2, pp. 45–52.
14. Abdullayev B.M. Korruksiyaga qarshi ekspertizaning metodologik asoslari [Methodological foundations of anti-corruption expertise]. *State and Law*, 2022, vol. 3, pp. 78–85.
15. Anti-corruption and Integrity in Customs: International Best Practices. OECD. Paris: OECD Publ., 2023.
16. Li X., Pan W., Xu G. A "Leaner" Government? The Effect of China's Anti-Corruption Campaign on the Body Weight and Health of Public Sector Employees, 2022. DOI: 10.2139/ssrn.4363161.

# **YURISPRUDENSIYA**

**HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI**

**2025-YIL 3-SON**

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.